

ISSN:  
3030-3311



# JCWS

**Volumel2  
Issue17  
September  
2024**

OpenAIRE | EXPLORE

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

INDEX




## **JOURNAL OF CONTEMPORARY WORLD STUDIES**

VOLUME | 2 ISSUE | 7 SEPTEMBER | 2024

ТОМ | 2 ВЫПУСК | 7 СЕНТЯБРЬ | 2024

JILD | 2 SON | 7 SENTYABR | 2024

*ISSN: 3030-3311*



JCWS

Scientific journal of “Journal of Contemporary World Studies”:

This collection has published articles accepted into the scientific journal “Journal of Contemporary World Studies” Part 7, 2024.

All articles within the Journal were assigned the unique DOI number and indexed in Zenodo, Open Aire, Google Scholar, Index Copernicus international scientific bases.

The materials of the journal can be used by professors, independent researchers, doctorates, undergraduates, students, teachers of lyceums and schools, scientific staff and all those interested in science.

Note! The authors are personally responsible for the veracity of the figures, reports, data in scientific articles included in the collection of journal Materials and the correctness of the quotes presented.

Научный журнал “Журнал изучения современного мира”:

В этом сборнике опубликованы статьи, принятые в научный журнал «Журнал изучения современного мира» № 2 за 2024 год, Часть 7.

Ко всем статьям в журнале был прикреплен уникальный номер doi, проиндексированный в международных научных базах zenodo, Open Aire, Google Scholar, Index Copernicus.

Материалы журнала доступны преподавателям, независимым исследователям, докторантам, магистрантам, студентам, преподавателям средних школ и колледжей, научным сотрудникам, а также всем, кто интересуется наукой.

Примечание! Авторы несут персональную ответственность за достоверность цифр, отчетов, информации в научных статьях, включенных в сборник материалов журнала, и правильность цитирования.

«Zamonaviy dunyo tadqiqotlari jurnali» ilmiy jurnali:

Ushbu to‘plamda «Zamonaviy dunyo tadqiqotlari jurnali» ilmiy jurnali 2024 yil 2-soni 7-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga DOI unikal raqami biriktirilib, Zenodo, Open Aire, Google Scholar, Index Copernicus xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

Jurnal materiallaridan professor-o‘qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o‘qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to‘plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma’lumotlar haqqoniylikiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.



<https://supportresult.uz/>

<p>Journal of Contemporary World Studies VOLUME   2, ISSUE   7, SEPTEMBER, 2024</p>	<p>Журнал изучения современного мира ТОМ   2, ВЫПУСК   7, СЕНТЯБРЬ, 2024 г.</p>	<p>Zamonaviy dunyo tadqiqotlari jurnali JILD   2, NASHR/ 7, SENTYABR, 2024</p>
<p><b><u>EDITOR-IN-CHIEF</u></b> <b>Soy Marina Petrovna</b> Associate professor, PhD, Department of Economics and Tourism of the Jizzakh Branch of the National Mirzo Ulugbek University of Uzbekistan</p> <p><b><u>EDITORIAL BOARD</u></b> <b>Bobanazarova Jamila</b> <b>Kholmurodovna</b> Professor, Doctor of Economic Sciences, Jizzakh Polytechnic Institute</p> <p><b>Samadkulov Mukhammadjon</b> <b>Islom ugli</b> Head of the Department "General Sciences", Associate Professor of the Yangiyer branch of the Tashkent Institute of chemistry and technology</p> <p><b><u>EDITORIAL SECRETARY</u></b> <b>Saitov Sirojiddin</b> <b>Abduvalievich</b> Senior lecturer of the Department of Economics and tourism of the Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek</p> <p><b><u>PRINTMAKER</u></b> <b>Kamolov Dostonbek Rustam</b> <b>ogli</b> Trainee teacher of the Department of Social sciences and physical culture of the Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek</p>	<p><b><u>ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР</u></b> <b>Цой Марина Петровна</b> Доцент, кандидат экономических наук, кафедра экономики и туризма Джизакского филиала Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека</p> <p><b><u>РЕДАКЦИОННАЯ</u></b> <b><u>КОЛЛЕГИЯ</u></b> <b>Бобоназарова Джамиля</b> <b>Холмуродовна</b> Профессор, доктор экономических наук, Джизакский политехнический институт</p> <p><b>Самадқулов Мухаммаджон</b> <b>Ислом угли</b> Заведующий кафедрой "Общие науки", доцент Янгиеровского филиала Ташкентского химико- технологического института</p> <p><b><u>СЕКРЕТАРЬ РЕДАКЦИИ</u></b> <b>Сайтов Сироджиддин</b> <b>Абдувалиевич</b> Старший преподаватель кафедры экономики и туризма Джизакского филиала Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека</p> <p><b><u>ПОДГОТОВКА К</u></b> <b><u>ПУБЛИКАЦИИ</u></b> <b>Камолов Достонбек Рустам</b> <b>угли</b> Преподаватель-стажер кафедры общественных наук и физической культуры Джизакского филиала Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека</p>	<p><b><u>BOSH MUHARRIR</u></b> <b>Soy Marina Petrovna</b> Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrasida dotsenti, F. F. n. O'zbekiston Milliy Mirzo Ulug'bek universiteti</p> <p><b><u>TAHRIRIYAT KENGASHI</u></b> <b>Bobanazarova Jamila</b> <b>Xolmurodovna</b> Jizzax Politexnika instituti professori, iqtisod fanlari doktori</p> <p><b>Samadqulov Muxammadjon</b> <b>Islom o'g'li</b> "Umumkasbiy Fanlar" kafedrasida mudiri, Toshkent kimyo- texnologiya instituti Yangiyer filiali dotsenti</p> <p><b><u>TAHRIRIYAT KOTIBI</u></b> <b>Saitov Sirojiddin</b> <b>Abduvalievich</b> Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrasida katta o'qituvchisi</p> <p><b><u>NASHRGA</u></b> <b><u>TAYYORLOVCHI</u></b> <b>Kamolov Dostonbek Rustam</b> <b>o'g'li</b> Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat kafedrasida stajyor o'qituvchisi</p>



**BIRINCHI PREZIDENTIMIZ ISLOM KARIMOVNING  
“YUKSAK MA’NAVIYAT-YENGILMAS KUCH”  
ASARINING XALQIMIZ MA’NAVIYATINI OSHIRISHDA  
QO‘SHGAN HISSASI**

**THE CONTRIBUTION OF OUR FIRST PRESIDENT  
ISLAM KARIMOV'S “HIGH MORALE-INVINCIBLE  
STRENGTH” TO THE MORALE OF OUR PEOPLE**

**ВКЛАД ПЕРВОГО ПРЕЗИДЕНТА ИСЛАМА  
КАРИМОВА “ВЫСОКАЯ ДУХОВНОСТЬ-  
НЕПОБЕДИМАЯ СИЛА” В ПОВЫШЕНИЕ  
ДУХОВНОСТИ НАШЕГО НАРОДА**

**AUTHOR**

**<sup>1</sup> Tolliboyev Dilshod  
Muhammadiyevich  
<sup>2</sup> Sufkhiddinov Sayfiddin  
Qahramon og'li, Miyzamov  
Zubaydulla Eshmamat o'g'li**

<sup>1</sup> O'zbekiston Milliy universitetining  
Jizzax filiali “Ijtimoiy fanlar va jismoniy  
madaniyat” kafedrasida katta o'qituvchisi.

<sup>2</sup> 3rd stage students of Jizzakh branch of  
the National University of Uzbekistan.

**<sup>1</sup> Tolliboyev Dilshod  
Muhammadiyevich  
<sup>2</sup> Sufkhiddinov Sayfiddin  
Qahramon ogli, Miyzamov  
Zubaydulla Eshmamat ogli**

<sup>1</sup> Senior lecturer of the Department “Social  
Sciences and Physical Culture”, Jizzakh  
branch of the National University of  
Uzbekistan.

<sup>2</sup> Associate Professor, M. Avezov South  
Kazakhstan State University.

**<sup>1</sup> Толибоев Дилшод  
Мухаммадиевич  
<sup>2</sup> Суфхиддинов Сайфиддин  
Кахрамон оглы, Мизамов  
Зубайдулла Эшмамат оглы**

<sup>1</sup> Старший преподаватель кафедры  
социальные науки и физическая  
культура " Джизакского филиала

**ANNOTATSIIYA**

Ushbu maqolamizda birinchi prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asari haqida so’z boradi. Bugungi va ertangi hayotimiz bilan chambarchas bog’liq bo’lgan g’oyat muhim va hal qiluvchi masalalar o’rtaga qo’yilgan mazkur asar insonning yuksalishida ma’naviyat olamining qanday ta’sir va kuchga ega ekani, shuningdek, ma’naviyatga qarshi qaratilgan xurujlarning real xavfi haqida har tomonlama mushohada yuritish, xalqimiz yangi hayot, yangi jamiyat asoslarini qurayotgan hozirgi murakkab va tahlikali zamonda odamlarni bunday xatarlardan ogoh etish, kelajak avlodimizni ma’naviy sog’lom va barkamol etib tarbiyalash, el-yurtimiz, keng jamoatchilik e’tiborini bu masalalarga yana bir bor qaratishga da’vat etishi bilan ulkan ahamiyat kasb etadi.

**ANNOTATION**

This article is about the work of our first president, Islam Karimov, "High Spirituality - Invincible Power". This work, which highlights the most important and decisive issues that are closely related to our lives today and tomorrow, focuses on the influence and power of the spiritual world in the rise of man, as well as against spirituality. to observe the real danger of attacks in every way, to warn people about such dangers in the current complex and dangerous times when our people are building the foundations of a new life and a new society, to raise our future generation to be morally healthy and well-rounded, to attract the attention of our country and the general public. It is of great importance as it calls for a renewed focus on these issues.

**АННОТАЦИЯ**

Данная статья посвящена работе нашего первого президента Ислама Каримова «Высокая духовность – непобедимая сила». Эта работа, освещающая наиболее важные и решающие вопросы, тесно связанные с нашей жизнью сегодня и завтра, фокусируется на влиянии и силе духовного мира на подъем человека, а также на наблюдении реальной опасности духовности. нападений, предупреждать людей о таких опасностях в нынешнее сложное и опасное время, когда наш народ строит основы новой жизни и нового общества, воспитывать наше будущее поколение морально здоровым и всесторонне развитым, привлекать внимание нашей страны и широкой общественности. Это имеет большое значение, поскольку требует нового внимания к этим вопросам.

**KALIT SO‘ZLAR**

Ma’naviyat, globallashuv, ommaviy madaniyat, ma’naviyatni anglash, ma’naviyatni shakllantirish, ahloq, ta’lim va tarbiya, ilm, fikrga qarshi fikr, g’oyaga qarshi g’oya, mustaqillik.

Национального университета  
Узбекистана.

<sup>2</sup> Студенты 3-го курса Джизакского  
филиала Национального университета  
Узбекистана.

**©2024. Tolliboyev Dilshod**  
**Muhammadiyahovich,**  
**Sufkhiddinov Sayfiddin**  
**Qahramon ogli, Miyyamov**  
**Zubaydulla Eshmat ogli.**

## KEYWORDS

Spirituality, globalization, mass culture, awareness of spirituality, formation of spirituality, ethics, education and upbringing, science, opinion against opinion, idea against idea, independence.

## КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Духовность, глобализация, массовая культура, осознание духовности, формирование духовности, этика, образование и воспитание, наука, мнение против мнения, идея против идеи, независимость.

## KIRISH

Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch — O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov qalamiga mansub hujjatli adabiy asar. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch asari 2008-yilda Ma'naviyat nashriyoti tomonidan 176 sahifada qattiq muqova bilan chop etilgan. Asar muqaddima va to'rt bobdan iborat.

Kitob qoraqalpoq, tojik, turkman, qirg'iz va qozoq tillariga tarjima qilinib, chop etilgan.

Islom Karimovning prezidentlik davri mobaynida bu kitob jahon miqyosida, xususan, musulmon olamida ham qiziqish uyg'otdi va Quvayt davlatida arab tiliga, Turkiya respublikasida turk tiliga tarjima qilindi. Misr arab respublikasi, Saudiya arabistoni podshohligi, Quvayt, Birlashgan arab amirliklari, Bahrayn kabi mamlakatlarda kitobning taqdimot marosimlari o'tkazildi.

Asarda yoritilgan masalalar “haqiqatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etib borayotgani” iddaosi bilan davlat va nodavlat tashkilotlar, ta'lim muassasalari va fuqarolar uchun qayta nashr etildi. Islom Karimov hukmronligi davrida ushbu asar propaganda vositasiga aylantirildi, har bir ta'lim dargohlarida, turli tashkilotlarda va davlatning barcha boshqaruv organlarida bo'lishi to'liq ta'minlandi. Asar asosida darsliklar yaratilib, ayniqsa maktab o'quvchilarga kuchli singdirildi. Butun respublika bo'ylab “Prezident asarlari bilimdoni” tanlovlari o'tkazilgan.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Islom Karimovning ushbu kitobida ma'naviyatning ma'no-mazmuni, uning inson, jamiyat hayotidagi o'рни va ahamiyati, bu tushunchaning nazariy hamda amaliy tomonlari turli fikrlar, xulosalar orqali tahlil etiladi. Ushbu asar 2008-yil Ma'naviyat nashriyoti tomonidan chop etilgan. Asar muqaddima va to'rt bobdan iborat. Birinchi bobda “Ma'naviyat — insonning ulg'aish va kuch-qudrat manbaidir”, deb nomlanadi. Ushbu bobda: “ma'naviyatni anglash”, “ma'naviyatni shakllantirishdagi asosiy mezonlar”, ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi haqida tushunchalar berilgan. Ikkinchi bob “Mustaqillik — ma'naviy tiklanish va yuksalish” deb nomlanadi. Bunda “Milliy g'oya va ma'naviy hayot”, “ma'naviyat va jamiyatning yangilanishi”, “islohotlar va ularning ma'naviy mezoni” belgilangan. Uchinchi bob “Ma'naviyatga tahdid — o'zligimiz va kelajagimizga tahdid” deb nomlangan.

Bu bobda “Globalashuv jarayonlari va ma'naviy tahdidlar”, “Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya” lar belgilangan. To'rtinchi bob “Vatanimiz taraqqiyotining mustahkam poydevori”, “inson qalbiga yo'l”, “eng buyuk jasorat” va “Xotima” dan iborat.

XIX-XX asrlar davomida fan va madaniyat taraqqiyoti jihatidan Evropa mintaqasi boshqalardan uzil-kesil ilgari lab ketdi va natijada

“jahon fani”, “umuminsoniy qadriyatlar” deganda birinchi navbatda Evropa madaniyati unsurlari tasavvur etila boshlandi. Yangi davrdagi bu mintaqaning yutuqlari ko‘p jihatdan madaniy integratsiya jarayonlari bilan bog‘liq. Bu davrda Evropa xalqlari (inglizlar, nemislar, fransuzlar va h.k.) mintaqa miqyosidagi o‘zaro madaniy axborot almashinuv doirasidan chiqib, o‘zga mintaqalarda yaralgan boyliklarni o‘zlashtira boshladilar. SHarqshunoslik keng rivoj oldi. Turli fan sohalari sharqshunoslarning yutuqlaridan ijodiy foydalana boshladilar. Evropaliklarning Osiyo va Afrika mamlakatlari va xalqlari hayotini o‘rganishi, bir tomondan, ularning olam haqidagi tasavvurlarini kengaytirib, turli mintaqa xalqlarining bir-birlarini tushunish, o‘zaro erkin muloqot qilish imkoniyatlarini oshirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, muayyan g‘arazli kuchlar uchun o‘zlariga qaraganda iqtisodiy va harbiy jihatdan zaifroq bo‘lgan yurtlarni bosib olish, qaramlik asoratiga solishga bo‘lgan intilishlari yo‘lida xizmat qildi.

XX asr oxiri - XXI asr boshlariga kelib integratsiya jarayonlari yanada avj oldi, zamonaviy axborot texnologiyalarining bemisl rivoji va yagona jahon axborot maydonining shakllanishi bu jarayonning yangi bosqichga ko‘tarilishiga, Prezidentning yangi kitobida topib aytilganidek, “sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi”ga olib keldi.

Siyosatga doir ilmiy adabiyotlarida bunday jarayon “globallashuv fenomeni” deb nomlanmoqda. “Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch” kitobida bu hodisa oddiy qilib “hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi” deb tushuntiriladi.

Bashariyat taraqqiyotidagi bunday o‘zgarishlarni uzil-kesil “yaxshi” yoki “yomon” deb, salbiy yoki ijobiy hodisa sifatida baholab bo‘lmaydi. Kitobda yozilganidek, “har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo‘lida foydalanish mumkin.”

Birinchi prezident kitobida globallashuv va integratsiya jarayonlarining talay ijobiy imkoniyatlari birma-bir sanab o‘tiladi. Ularni umumlashtirib aytiladigan bo‘lsa, birinchi navbatda turli sohalarda (jumladan, iqtisod, siyosat,

madaniyat sohalarida) “davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi”ga xizmat qilishi mumkin, va darhaqiqat, bunday hamkorlik munosabatlari kundan-kunga kengayib va rangbaranglashib borayotganini o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rib turibmiz.

Shu bilan birga dunyoda barcha odamlar ham ezgu niyatlar bilan ish olib boradi, deyish qiyin. Ba’zilar uchun bu hayotda vujudga kelgan har bir yangilik ularning o‘z g‘arazli maqsadlariga qulay bir vosita xizmatini bajarishi kerak. Jumladan, jahonda yagona axborot maydonining vujudga kelishi ham bunday buzg‘unchi kuchlar uchun “ayni muddao” bo‘ldi. Ular zudlik bilan bu qudratli vositani ham o‘z qabih niyatlari yo‘lida ishga solish harakatiga tushdilar. Vaziyatning murakkabligi shundaki, bunday yovuz niyatli kuchlarning Vatani ham, millati ham, dinu imoni ham yo‘q. Ular goh “islomiy” qiyofada, goh “erkinlik va demokratiyani olg‘a siljitish” niqobi ostida harakat qilishlari mumkin.

Birinchi prezident I.A.Karimovning yangi kitobida insonlarning Borliq haqiqatiga munosabatidagi ikki xil yondoshuv, “bir-birini inkor qiladigan ikki xil hayotiy qarash” haqida gap boradi:

“Birinchi – o‘z nonini halol mehnat bilan topadigan, xolis va ezgu ishlar bilan el-yurtga naf etkazadigan, tiriklik mazmunini teran anglab, nafaqat bugungi hayot lazzatlari, balki oxirat haqida, uning obod bo‘lishi haqida o‘ylab yashaydigan insonlarga xos hayotiy qarashlar.

Ikkinchi – bunga mutlaqo qarama-qarshi bo‘lgan yondoshuv, ya’ni, hayotning ma’no-mazmuni haqida bosh qotirmasdan, bunday savollar bilan o‘zini qiynamasdan, faqat nafs qayg‘usi va o‘tkinchi hoyu havasga, huzur-halovatga berilib, engil-elpi umr kechiradigan, o‘zining ota-ona va farzand, el-yurt oldidagi burchiga umuman befarq bo‘lib yashaydigan odamlarning fikr-qarashlari.

Mana shunday ikki xil dunyoqarash asosida paydo bo‘ladigan og‘ir savollar odamzot ongli yashay boshlagan zamonlardan buyon uni o‘ylantirib, qiynab keladi...”

Ma'lumki, shu kungacha jahon ilmida "ma'naviyat" hodisasi yaxlit tushuncha sifatida izchil ilmiy tahlilga tortilmadi. Bu sohaga oid mavjud izlanishlar boshqacha tushunchalar va tizimlar doirasida kechdi. Xususan, Evropada inson ma'naviyatiga oid bahslar falsafa va uning tarkibiy qismi hisoblangan axloqshunoslik ilmi doirasida rivojlandi. Inson axloqi aslida zohiriy, aniqrog'i, ikkilamchi hodisa bo'lib, shaxs ma'naviyatining insonlar aro munosabatlarda namoyon bo'lishidir. Uning botinida ma'naviy omillar yotgani tufayli faylasuflar asosan axloqning botiniy omillariga e'tibor qaratganlar. Agar bu sohadagi Evropa an'anasini umumiy bir tarzda ko'zdan kechiradigan bo'lsak, axloqshunoslik ilmi ko'proq insonning iroda erkinligi, aql va bilim, baxt va lazzatlanishga intilish, manfaatdorlik kabi masalalarga e'tibor qaratganligini ko'ramiz. Aksariyat holatlarda mas'uliyat va burch masalalari ham inobatga olinadi. Axloqning imonga bog'liq jihatlari xristian axloqida alohida ta'kid etilsa-da, Yangi davrda bu masala ko'pincha aktuallashmaydi. Umuman, insonning dunyoviy maqsadlariga alohida e'tibor qaratilishi Evropa axloq ilmining ustivor jihati deyish mumkin.

Milliy ma'naviyatimiz an'analarida shaxs ma'naviyatining asosiy jihatlari – imon, ilm, mas'uliyat, mehrning o'zaro uyg'unligi masalasi ustivor yo'nalish ekanligi ma'lum. Muayyan tarixiy sabablarga ko'ra Evropa axloq ilmida ayni shu o'zaro mutanosiblikka etarli e'tibor qaratilmadi. Natijada, bugungi kunga kelib, ushbu mintaqada ma'naviy-axloqiy sohada juda og'ir muammolar kelib chiqmoqda.

Bizning nazarimizda, axloqning ikki jihati bor, birinchisi – zohiriy (tashqi) tomoni bo'lib, insonlar aro munosabatlarda o'rtacha mo'tadil meyorini saqlab turishga xizmat qiladi va u sharoitga moslashib o'zgarib turishi mumkin. Ikkinchisi – botiniy (ichki), ya'ni shaxs ma'naviyati bilan bog'langan tomoni bo'lib, bu jihat endi tashqi shart-sharoitga emas, balki shaxsning imon-e'tiqodiga bog'liq bo'ladi.

Agar bunday inson sharoit taqozosi bilan imon-e'tiqodiga zid xatti-harakat qilishga majbur bo'lsa, unda vijdon azobiga uchraydi. Demak,

"vijdon azobi" hodisasi zohiriy axloq talablari bilan shaxs imoni orasida ziddiyat mavjud bo'lgan holatlarda paydo bo'ladi. Materialistik (aniqrog'i, dahriyona) dunyoqarashga asoslangan axloqiy ta'limotlarda odatan zohiriy tomonga e'tibor qaratiladi va imon hisobga olinmaydi. Axloqni ijtimoiy muhit bilan yoki insonning fiziologik (biologik) ehtiyojlari bog'lab izohlashga urinish ana shunday qarashlar natijasida tug'iladi. Vaholanki, na ijtimoiy muhitning, na fiziologik ehtiyojlarning axloqqa bevosita aloqasi yo'q.

Ikkinchi yondoshuv – inson moddiy mavjudot, ammo undagi ruh abadiy, bu dunyo hayoti inson uchun sinov maydoni bo'lib, uning har bir qadami o'lchovli, u har bir xatti-harakati, amali uchun Oliy qudrat oldida javob beradi, agar savobli ish qilsa, ham bu dunyoda, ham oxiratda mukofotini oladi, agar gunoh qilsa yoki bu dunyoda, yoki oxiratda jazosini oladi, deb e'tiqod qilish. Ya'ni Borliqning asosi moddiylikdangina iborat emas, balki bu olamni yaratgan va boshqarib turgan azaliy va abadiy Oliy qudrat mavjud, deb ishonish, shunga imon keltirish. Imon keltirish bilan ushbu Oliy qudrat oldida mas'uliyat tuyg'usi paydo bo'ladi. Ana shu asosda shakllangan axloq haqiqiy axloq bo'ladi. "Axloq – ma'naviyatning o'zagi" degan ta'rifda ayni shu jihat inobatga olinadi.

Shaxsning xulqi uning ma'naviyati ta'sirida takomillashib (ya'ni tabiiy xislatlari qusurdan fazilatga aylanib) borgan sari uning axloqi zamima axloqdan (insonni xudbinlik sari tortuvchi tarbiya ko'rmagan xulqdan) hamida axloqqa (ma'naviy kamolot natijasida go'zallashgan xulqqa) aylanib boraveradi. Nafs tarbiyasi – ma'naviy kamolot yo'li bo'lib, axloqi hamidaning shakllanish yo'li hamdir. Ammo ma'naviyat faqat nafs tarbiyasidan iborat emas. Ma'naviyat imondan boshlanadi, ilm bilan mukammallashadi, tahliliy imon orqali inson nafs tarbiyasi (samovospitanie)ga o'tadi va oxiri mehr ma'rifati orqali ma'naviy kamolotga erishadi. "Axloq – ma'naviyatning o'zagi" degan hikmatning mazmuni shundaki, insonning ma'naviy kamolot darajasi uning axloqida eng yorqin shaklda namoyon bo'ladi. Agar inson faqat taqlidiy imon darajasida qolgan bo'lsa, u Allohning



borligi va birligini tan olgan bo'ldi, buyurilgan farzlarni baqadri imkon bajarishga urinadi, ammo axloqi hamida sohibi bo'lmaydi.

“Ommaviy madaniyat” hodisasi asosida birnecha omillarning chatishuvi yotadi.

Ulardan birinchisi - imonsizlik, o'z insoniy burchi va mas'uliyatini tan olishni istamaslik, befarqlik va loqaydlik.

Ikkinchisi - sanab o'tilgan qusurlarni oqlashga xizmat qiluvchi “dunyoni manfaat boshqaradi” (demak, bu dunyoda har kim o'z foydasi uchun qo'ldan kelgan harakatini qilsa, bo'laveradi, degan) dahriyona (aniqrog'i, xudbinona) tezis (“qoida”) asosida yashash. Bu ikki omil azaldan bo'lgan.

Uchinchisi – oldingilaridan kelib chiqadigan axloqiy relyativizm, ya'ni dunyoda azaliy va abadiy qat'iy axloqiy meyorlar mavjud emas, ko'pchilik o'zini qanday tutayotgan bo'lsa, biz ham shunga qarab ketaveramiz, degan o'ysizlik, fikriy dangasalik tamoyili.

Va nihoyat to'rtinchisi - bugungi axborot vositalarining cheksiz imkoniyatlari sharoitida yuqoridagi birinchi Prezident ta'rifiga muvofiq, befarqlik va o'ysizlik botqog'iga botgan kimsalarning dunyoni boshqarishga intilayotgan kichik bir guruh qo'lida qo'g'irchoqqa aylanib, o'zlarining eng tuban hayvoniy xohish va istaklarini ochiqdan-ochiq namoyon qilishni “umuminsoniy axloqiy meyorlar” darajasiga ko'tarishga urinishlaridir. Bunday holatlar Evropa mintaqasi tarixida ilgari ham bo'lgan, ammo hech qachon bu daraja jahon miqyosida keng ko'lam kasb etmagan va bu darajada kuchli targ'ibot imkoniyatlariga ega bo'lmagan edi. Birinchi Prezident kitobida bu haqda shunday deyiladi: “Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon etkazishi mumkin.”

#### XULOSA

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Yuksak ma'naviyat

– yengilmas kuch” kitobini nashrdan chiqardi. Ushbu kitobda odamzot uchun hamma zamonlarda ham bebaho boylik bo'lib kelgan ma'naviyatning ma'no-mazmuni, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati, bu murakkab va serqirra tushunchaning nazariy va amaliy tomonlari keng qamrovli fikr va xulosalar orqali tahlil etiladi. Ayni paytda istiqloq yillarida yurtimizda milliy ma'naviyatimizni tiklash, uni zamon talablari asosida rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ulkan ishlar, bu borada oldimizda turgan maqsad va vazifalar, islohotlarning ma'naviy mezonlari haqida atroflicha fikr yuritiladi.

Muallif haqli ravishda ta'kidlaganidek, “Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak”.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 200b.  
Karimov.I.A. Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor–Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 98 b.  
Mirziyoyev.Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 456 b.  
Mirziyoyev.Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 98 b.
2. Abdulaxat Qahhorov, “Devoni lug'otit turk haqida”. Toshkent: “Sharq yulduzi”, 2010-yil, 1-son, 342-b  
“Ma'naviyat yulduzlari”, Abdulla QODIRIY NOMIDAGI XALQ MEROSI nashriyoti, Toshkent, 1999-y, 45-b.
3. Koshg'ariy M. Turkiy so'zlar devoni. Devonu lug'otit turk. Uch tomlik. I tom. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M. Mutallibov. – T.: O'zbekiston FA NASHRIYOTI, 1960, 500 b.  
Koshg'ariy M. Turkiy so'zlar devoni. Devonu

lug'otit turk. II tom. – T.: O'zbekiston FA nashriyoti, 1961, 428 b.  
Koshg'ariy M. Turkiy so'zlar devoni. Devonu lug'otit turk. III tom. T.: O'zbekiston FA nashriyoti, 1963, 463 b.

4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston MILLIY ENSIKLOPEDIYASI, 2000. – 678 b.  
Quronov D., Mamajanov Z. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: AKADEMNASHR, 2010. – 450 b.

5. Uz.m.wikipedia.org.  
www.hozir.org.

6. www.saviya.uz.

7. Sobirovna K. D. et al. DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP-A SPRINGBOARD FOR ENSURING MACROECONOMIC STABILITY //The journal of contemporary issues in business and government. – 2021. – T. 27. – №. 2. – C. 5512-5519.

8. Kuchimov A. et al. AN INNOVATIVE APPROACH TO TEACHING GREEN ECONOMY: A MULTIDISCIPLINARY EXPLORATION //Journal of Contemporary World Studies. – 2024. – T. 2. – №. 3. – C. 59-62.

9. Hamraqulovich K. A. et al. RAQAMLASHGAN TA'LIM VA UNING OTM BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI ROLI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – C. 352-356.

10. Qosimova D., Ko'chimov A. Fundamentals of investment environment in the process of digital transformation of the economy //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 9. – C. 417-421.

11. Kuchimov A., Unnisa S. A., Najmiddinov D. DEFINING THE TYPES OF THE SHADOW ECONOMY //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 65-70.